JIZZAX VILOYATI ZOMIN TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024 - yil 28 - fevral 74-3-48-Q/24 Zomin tumani hokimligi

Tumandagi yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli avtomototransport vositalari va ularning tirkamalarini 2024-yilda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6, 25-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomi talablariga muvofiq, 2024-yilda transport vositalarining majburiy texnik ko‘rigini tashkil qilish maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N :

Tuman hududidagi barcha yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan avtotransport vositalari va ularning tirkamalari majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin.

Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha tuman komissiyasi tarkibi 1-ilovaga, texnik ko‘rikni o‘tkazish jadvali 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

“Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom talablariga asosan jismoniy shaxslar yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tgan tadbirkorlik subyektlarida M1 toifadagi transport vositalari egalari o‘z transport vositasining texnik holati va uskunalari muvofiqligini baholash uchun belgilangan yig‘im to‘lovini amalga oshirgandan so‘ng, o‘z tanloviga ko‘ra texnik ko‘rikdan o‘tkazishi belgilansin.

Tumandagi barcha transport vositalari egalari bo‘lgan yuridik transport vositalarini o‘z vaqtida reja jadval asosida ko‘rikdan o‘tkazish majburiyati

yuklatilsin.

Transport vositalari quyidagi davriylikka muvofiq texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin:

a) tijorat asosida yo‘lovchilar tashish uchun foydalaniladigan yengil avtomobillar, avtobuslar va o‘tiriladigan joylar soni 8 ta va undan ortiq bo‘lgan (haydovchining o‘rnidan tashqari), odamlarni muntazam tashish uchun jihozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, og‘ir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari va ularning tirkamalari — bir yilda ikki marta;

b) qonunchilikga ko‘ra, jismoniy shaxslarga tegishli ishlab chiqarilganiga 10 yilgacha bo‘lgan yengil toifadagi avtotmototranpsort vositalari texnik ko‘rikdan (mazkur bandning «a» kichik bandida ko‘rsatilgant ransport vositalaridan tashqari) ixtiyoriy ravishda o‘tkaziladi.

v) Yengil avtotmototransport vosilari quyidagi muddatlarda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkaziladi:

ishlab chiqarilganligiga 11 yildan 14 yilgacha bulgan yengil (mazkur bandning «a» kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) avtotransportlar — ikki yilda bir marta;

v) ishlab chiqarilganiga 15 yil va undan ortiq bo‘lgan yengil avtotransportlar, shuningdek, ishlab chiqarilgan vaqti aniqlanmagan transport vositalari (mazkur bandning «a» kichik bandida ko‘rsatilgantran spor tvositalaridan tashqari)—bir yilda bir marta;

g) tirkamalar ko‘rikka transport vositasi — shatakchi uchun belgilangan muddatlarda taqdim etiladi.

Mazkur qarorning 4-bandi «a» kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalarning texnik ko‘rigi:

birinchi marta — 1- aprel—30- iyunda;

ikkinchi marta — 1-sentabr—31-oktabrdao‘tkaziladi.

Yuridik shaxslarga qarashli bo‘lgan transport vositalarining texnik

ko‘rigi 1-mart — 30-iyunda;

Jismoniy shaxslarga qarashli bo‘lgan transport vositalarining texnik ko‘rigi 1- yanvardan — 31- avgustga qadar o‘tkazilsin.

Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tuman komissiyasi rahbariga transport vositalarining texnik ko‘rikdan o‘tkazishda:

Transport vositasini ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi guvohnomada (texnik pasportda, texnik talonda) ko‘rsatilgan ma’lumotlarga transport vositasi turi, markasi, modeli, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish raqami belgilari, shassi (rama), kuzov va dvigatelning identifikatsiyalash raqamlarining muvofiqligi;

Transport vositasining texnik holati va jihozlari texnik reglamentlar, standartlar talablariga, yo‘l harakati xavfsizligi qoidalari va normalariga muvofiqligi;

maxsus va tezkor xizmatlarning transport vositalarida maxsus rangli va ovozli signallar qurilmalarining mavjudligi, sozligi va qonuniyligi, shuningdek, transport vositasining rang-grafik bo‘yash sxemalarining texnik reglamentlar yoki standartlar talablariga muvofiqligi;

gaz yonilg‘isida ishlash uchun qayta jihozlangan transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazishda gaz ballonlarining foydalanish muddati, ishlab chiqarilganligi, zavod raqami, gaz ballonlarini sinovdan o‘tkazish muddatlari, gaz balloni anjomlarining belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirilishini ta’minlasin.

Transport vositalarining majburiy texnik ko‘rigi DYHXX organlari hamda tadbirkorlik subyektlari–yuridik shaxslar tomonidan nizomga muvofiq o‘tkaziladi hamda tegishli yig‘im undiriladi.

Transport vositalarining texnik holati va uskunalarining muvofiqligini baholash uchun DYHXX organlari tomonidan vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarning texnika bazalari, shuningdek, xususiy texnik xizmat ko‘rsatish stansiyalari shartnoma asosida jalb etilishi mumkin.

Jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan M1 toifadagi transport vositalari faqat tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan texnik ko‘rikdan o‘tkaziladi.

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-son “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori 3-bandiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmati harbiy bo‘linmalarining transport vositalari mazkur idoralar tomonidan belgilangan tartibda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilishi inobatga olinsin.

Tuman ichki ishlar boshqarmasi (J.Shadmanov) majburiy texnik ko‘rik yakuni to‘g‘risida tuman hokimligiga axborot taqdim etsin.

Ushbu qaror «Sharq tongi» gazetasida e’lon qilinsin va belgilangan tartibda hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

Mazkur qaror qabul qilish munosabati bilan tuman hokimining 2023 - yil 24-yanvardagi 21-3-48-Q/23-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari v.b F.Uralov zimmasiga, ijrosini tashkil etish tuman ichki ishlar boshqarmasi boshlig‘i v.b J.Shadmanov zimmasiga yuklatilsin.

Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Tuman hokimi **A.Abdug'aniyev**

Zomin tuman hokimining
2024-yil 28-fevraldagi
74-3-48-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Zomin tumani hududida mavjud shaxsiy va yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan avtotransport vositalarini 2024-yilgi majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazuvchi komissiya

T ARKIBI

1. Komissiya raisi: Jo‘rayev Tohir Safarovich-tuman IIB YXXB boshlig‘i mayor

2. A’zolari: Begbutayev Sherzod - tuman IIB YXXB inspektori serjant

Imonov Shavkat – Viloyat transport bo‘limi xodimi

Zomin tumani IIB boshligi v/b mayor: J.R.Shadmanov

Shodmonqulov Eshonqul - tuman «Ruxsora- Gavxar»KTXF raxbari

O‘sarov Zafar - tuman «Kuzgu-Ziyo-Trans» MChJ raxbari

Zomin tuman hokimining
2024-yil 28-fevraldagi
74-3-48-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Zomin tumani xududidagi korxona, xo‘jalik va tashkilotlarga tegishli bo‘lgan transport vositalarini 2024-yilgi majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilishi

J A D V A L I

T/R	Korxona, tashkilot nomi	TR vositalari soni	O‘tkazilish joyi	O‘tkazilishi muddati	O‘tkazilganlik belgisi
1	Zomin sanatoriyasi MCHJ	9	Duoba QFY	01.03.24 y	
2	«Dashtobod yul kurilish» MCHJ	14	Dashtobod sh	02.03.24 y	
3	«Xaydovchi-trans» NTM	4	Zomin sh	03.03.24 y	
4	«Ruxshona-Ruslan» MChJ	1	Dashtobod sh	04.03.24 y	
5	«Toza Xudud» DUK Zomin filiali	15	Zomin sh	05.03.24 y	
6	«Turkiston matlubot invest» MChJ	3	Zomin sh	05.03.24 y	
7	Zomin MX va KX kolleji	3	Zomin sh	06.03.24 y	
8	«Zomin kapital savdo» MChJ	1	Zomin sh	06.03.24 y	
9	«Karapchi-Yer trans» MChJ	1	E.Xolmatov SIU	06.03.24 y	
10	Zomin tuman DSENM	2	Zomin sh	07.03.24 y	
11	«Bilol» KTXF	1	Beshkubi k	10.03.24 y	
12	Tuman obodonlashtirish bo‘limi	16	Zomin sh	10.03 24 y	
13	«Dayche agromashina» firmasi	2	Dashtobod sh	10.03.24 y	
14	«Zomin agrotexservis» MChJ	1	Zomin sh	11.03 24 y	
15	«Shoxruxbek Ismoilov» XF	1	A.Toirov SIU	12.03.24 y	
16	«Xidirnazar Kullasin» XK	1	Guliston SIU	13.03.24 y	
17	«Nazarkulov Mexroj» MChJ	3	Turkman k	15.03.24 y	
18	«Xamraqulov G‘ulom» XK	1	Zomin sh	15.03.24 y	
19	«Kuzgu-Ziyo-Trans» MChJ	48	Zomin sh	16.03.24 y	
20	«Tabiat Yodgorligi» KTXF	2	Dashtobod sh	17.03.24 y	
21	«Nasldor dala chorvasi» FX	1	O‘zbekiston SIU	18.03.24 y	
23	Zomin xalk banki	2	Zomin sh	21.03.24 y	
23	«Zomin gaz shul’asi» MChJ	1	Zomin sh	21.03.24 y	
24	Yom muruvvat uyi	3	Yom k	21.03.24 y	
25	«Utkir kapital kurilish» MChJ	2	Zomin sh	23.03.24 y	
26	«Dilinur Shuxratova» XK	1	Zomin sh	23.03.24 y	
27	«Osiyo Favorites» XF	1	Zomin sh	24.03.24 y	
28	«Xaydarov Sherko‘zibek» XF	1	So‘fimozor k	25.03.24 y	
29	«Asilnoz» XK	1	Zomin sh	26.03.24 y	
30	«Bek» FX	1	O‘zbekiston SIU	28.03.24 y	
31	«Zomin avtosavdo» MChJ	2	Zomin sh	29.03.24 y	
32	«Doni MAX» XF	1	Zomin sh	01.04.24 y	
33	Zomin TYXPTFK	30	Zomin sh	02.04.24 y	
34	«Xolboy Bozorboev» XF	1	Zomin sh	03.04.24 y	
35	«Shomat Bobo» UOK	1	Zomin sh	04.04.24 y	

36	«Usto Maxmud» KTXF	1	Zomin sh	05.04.24 y	
37	«Akram Yarmonkulov» XF	1	Dashtobod sh	07.04.24 y	
38	«Navruzbek Erkinov» XF	2	Zomin sh	08.04.24 y	
39	«Zomin noz ne'matlari» XK	1	Zomin sh	09.04.24 y	
40	«Raximaxon» XK	1	Zomin sh	10.04.24 y	
41	«Kamol–Sh» DFX	1	Iqbol SIU	11.04.24 y	
42	Maxsus melioratsiya ta'mirlash	1	Dashtobod sh	11.04.24 y	
43	«Utkirbek Kenja» MChJ	1	Zomin sh	12.04.24 y	
44	«Nodirabegim Anvarbek» XK	1	Zomin sh	16.04.24 y	
45	Oltin boshok FX	1	Zomin sh	15.04.24 y	
46	Zomin tumani tibbiyot birlashmasi	2	Zomin sh	16.04.24 y	
47	«MKT Vatanparvar» Zomin bulimi	4	Zomin sh	17.04.24 y	
48	«Zafar» KTXF	1	Zomin sh	18.04.24 y	
49	«Absalyut Avangard Plyus» XF	2	Zomin sh	21.04.24 y	
50	Zomin DSI	1	Zomin sh	21.04.24 y	
51	«Nizom Farrux» XF	1	Zomin sh	23.04.24 y	
52	Zomin suv okova tashkiloti	2	Zomin sh	24.04.24 y	
53	Pshagor KVP	1	Pshagor k	25.04.24 y	
54	«Islom Sattorov» XF	1	Gulshan QFY	26.04.24 y	
55	Tuman moliya bulimi	1	Zomin sh	28.05.24 y	
56	«Navruz» XF	1	Zomin sh	29.05.24 y	
57	«Xiron Mexroj» XF	1	Zomin sh	30.05.24 y	
58	Tuman veterinariya bulimi	1	Zomin sh	01.05.24 y	
59	«Lochin» XF	1	Dashtobod sh	03.05.24 y	
60	Dashtobod neftebaza	21	Dashtobod sh	05.05.24 y	
61	Tuman hokimligi	5	Zomin sh	06.05.24 y	
62	«Maxsus savdo» MChJ	1	Zomin sh	07.05.24 y	
63	«Zovur kanal tozalash» MChJ	1	Dashtobod sh	08.05.24 y	
64	«Lotos Invest» XK	1	Zomin sh	11.05.24 y	
65	«Turbo-Media» XK	2	Zomin sh	12.05.24 y	
66	«Dashtobod oromgoxi» MChJ	1	G'allakorQFY Xulkar k	13.05.24 y	
67	«Go'zal Zomin Avtomobilchi» MChJ	4	Zomin sh	15.05.24 y	
68	«Shaxzod Ismoilov» FX	2	Zomin sh	15.05.24 y	
69	«Asrorova Gavxar» IChXF	2	Zomin sh	16.05.24 y	
70	Yermulkkadastri DUK	1	Zomin sh	17.05.24 y	
71	«Zaamin sinni Gardens» FX	1	G'allakorQFY	18.05.24 y	
72	«Kuvonch» KTXF	1	Zomin sh	24.05.24 y	
73	Quduqcha qVP	1	Quduqcha q	25.05.24 y	
74	Kutchi xususiy chorvachilik FX	1	Chorvador QFY Kutchi k	26.05.24 y	
75	Ashurov Abduraim FX	1	Yangi Xayot SIU	27.05.24 y	
76	Olish FX	2	Guliston SIU	28.05.24 y	
77	Don Rizk FX	1	Dashtobod sh	30.05.24 y	

78	«Shoxjaxon Xudoyorovich» XK	3	Zomin sh	30.05.24 y	
79	Dashtobod transport kolleji	2	Dashtobod sh	30.05.24 y	
80	«Malika-Alkogol-Tamaki» XK	3	Zomin sh	30.05.24 y	
81	«Samandar Universal» MChJ	1	Dashtobod sh	30.05.24 y	
82	Maxala xayriya jamoat fondi	1	Zomin sh	30.05.24 y	
83	«Kiparis» fermer xujaligi	2	G‘allakorQFY	01.06.24 y	
84	«Abiyirov Askar servis» XK	1	Zomin sh	01.06.24 y	
85	«Solixa- Dilroz» MChJ	1	Zomin sh	01.06.24 y	
86	Master-taste» XK	1	Zomin sh	01.06.24 y	
87	«Jizzax organik» XK	25	Chilonzor MFY	01.06.24 y	
88	«Sarikulsoy» FX	1	Uvol k	01.06.24 y	
89	«Nasldor dala chorvasi» FX	1	Turttom MFY	02.06.24 y	
90	«Anorboev Yorkin davron» FX	1	Zomin sh	02.06.24 y	
91	«Aziz Sardor Xusanov» FX	1	Zomin sh	02.06.24 y	
92	«Zomin kapital savdo» MChJ	1	Chetarik k	02.06.24 y	
93	«Murtozokul» FX	1	Ikbol kurgoni	03.06.24 y	
94	Dashtobod madaniyat bulimi	1	Dashtobod shaxri	04.06.24 y	
95	74-XMKK	1	Kairma MFY	05.06.24 y	
96	Ruxsora-Gavxar KTXF	30	Dashtobod sh	06.18.16 y	
97	Nayman iftixori FX	1	Kattabog MFY	07.06.24 y	
98	«Azim Zomin shifo» MChJ	3	G‘allakorQFY	08.06.24 y	
99	Beshbulok chorvachilik fermasi	1	Beshbulok k	09.06.24 y	
100	Oltin boshok FX	1	Zomin sh	15.06.24 y	
101	Zomin-Dashtobod Gisht XK	1	Dashtobod sh	11.06.24 y	
102	Turk-Sarkardasi MChJ	1	Zomin sh	12.06.24 y	
103	Nizom-Farrux KTXF	1	Dashtobod sh	11.06.24 y	
104	Ayubjonov Jaxongir MChJ	1	Zomin sh	12.06.24 y	
105	Zomin gaz shulasi	1	Oktepa m	12.06.24 y	
106	Ilyosbek Javlonbek FX	1	Chilonzor SIU	13.06.24 y	
107	Ruxshona Ruslan MChJ	1	Gulshan QFY	14.06.24 y	
108	Shomat bobo XUOK	1	Zomin sh	15.06.24 y	
109	Yarov Jaxongir KTXF	1	Zomin sh	15.06.24 y	
110	Jizzax kishlok qurilish servis MChJ	2	Gulshan QFY	16.06.24 y	
111	Baxrom XIChK	1	Zomin sh	14.06.24 y	
112	Milliy tabiat bog‘i	3	Duoba QFY	15.06.24 y	
113	G‘ulomjon Mamadaliev FX	1	Parchayuz k	15.06.24 y	
114	«Agrobank»ATB Zomin filiali	1	Zomin sh	15.06.24 y	
115	«Mikrokreditbank»	1	Zomin sh	15.06.24 y	
116	Zomin o‘rmon xujaligi	3	G‘allakor QFY	16.06.24 y	
117	«Jizzax poultri» qo‘shma korxonasi	5	G‘allakor QFY	16.06.24 y	
118	Zomin TYFK DM	28	Qayirma MFY	16.06.24y	
118	**Jami**	**400**			